



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

“TEMUR TUZUKLARI” DAGI SONLARNING MA’NO XUSUSIYATLARI SEMANTIC FEATURES OF NUMERALS IN “TEMUR TUZUKLARI”

Olimova Mushtariybonu Azizjon qizi

ToshDO‘TAU yosh tadqiqotchisi

E-mail: olimovamushtariybonu2005@gmail.com

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026./JIOL7284

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Temur tuzuklari” asarida ishlatilgan sonlarning semantik xususiyatlari va ularning asar tuzilishidagi funksional roli tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida sonlarning faqat miqdor ifodalash uchun emas, balki ramziy, falsafiy va ijtimoiy ma’nolarni ifoda etish vositasi sifatida ishlatilgani aniqlandi. Asarda uchraydigan sonlar tizimining ichki tuzilishi, ularning bir-biriga nisbatan tartiblanishi va gradatsion xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, sonlar orqali yaratilgan muayyan iyerarxiya va tartib prinsiplarining asardagi umumiy mafkuraviy asoslarni mustahkamlashdagi o‘rni ham ko‘rsatib berildi.*

Kalit so‘zlar: *raqam, gradatsiya, yaxlitlik, tartib, mukammallik, tizim, ramziy va diniy ma’no.*

Annotation. *This article analyzes the semantic characteristics of the numbers used in the work “Temur Tuzuklari” and their functional role in the structure of the text. During the research, it is revealed that numbers are employed not only for quantitative expression but also as a means of conveying symbolic, philosophical, and social meanings. The internal structure of the system of numbers found in the work, their hierarchical arrangement, and gradational features are examined. Furthermore, the study highlights the role of numbers in creating a specific hierarchy and order, contributing to the reinforcement of the general ideological foundations of the work.*

Key words: *number, gradation, integrity, order, perfection, system, symbolic and religion meaning.*

Turkiy tillarning keng semantik imkoniyati Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy asarlarida o‘z ifodasini topgan. Turkiy tillarning, xususan, o‘zbek tilining axborot berish, til sohibining tafakkur tarzini ifodalash xususiyati raqamlarda ham ifodalanadi. Raqamlar tilning ramziy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda olamning miqdor va sonlar bilan bog‘liq rangin manzarasini namoyon etadi. Mazkur maqolada “Temur tuzuklari” asaridagi son leksemalarning miqdor bildirish va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Har bir asar, ayniqsa, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan asar, o‘z ichida faqat yozilgan so‘zlar emas, balki ularni tashkil etuvchi elementlar — har bir raqam,



har bir ibora, har bir nuqta va vergul ham ma'no tashuvchidir. “Temur tuzuklari” asari, o'zining harbiy va siyosiy tartibga soluvchi tamoyillari bilan ajralib turadi, lekin uning ichida yashiringan yana bir sir — bu sonlarning ma'no qatlamlaridir. Asar faqat yurt boshqaruvining tamoyillarini emas, balki sonlar orqali shakllantirilgan mafkuraviy tizimni ham aks ettiradi. Sonlar asarda o'zining oddiy miqdoriy ifodalardan tashqari turli madaniyatlarda ramziy, falsafiy va ma'naviy mazmunlarga ega bo'lib, ijtimoiy tartib va davlatning mustahkamligini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, asarda sonlar o'rtasida ma'lum bir gradatsiya mavjudligini aniqlash mumkin. Bu gradatsiya *bir* raqami va *yuz ming* sonlari o'rtasida yaratilgan iyerarxik tizimni aks ettiradi. *Bir* raqami asosiy birlikni va yagona boshqaruvni ko'rsatish bilan birga, davlat tuzilmasidagi barcha elementlarning yagona va o'zaro bog'langanligini ta'kidlaydi.

Yuz ming soni esa davlatning eng yuqori darajadagi kuchini, ijtimoiy tuzilmadagi eng yuqori pozitsiyani anglatadi. “Temur tuzuklari”dagi *bir* raqami eng kichik raqam sifatida, aslida, jamiyat va davlatning poydevori sifatida ishlatiladi. *Bir* raqami o'zining badiiy va ramziy mazmuni bilan faqat miqdoriy ifoda emas, balki birlik, yagona boshqaruv tamoyilini anglatadi. Bu raqam davlatning yakuniy maqsadi — birlashgan va mustahkam ijtimoiy tuzilmani aks ettiradi. Shu bilan birga Amir Temurning “*Xudo bitta, uning sherigi yo'qdir*” degan so'zlari islom dinining asosiy ta'limoti — tavhid — Allohning yagonaligini e'tirof etish bilan bog'liq. *Bir* raqami islomda Allohning birligi va yagona ekanligini ifodalashda ishlatiladi, chunki bu raqam boshqa hech qanday bo'linishga ega bo'lmagan yagona birlikni anglatadi.

Yuz ming soni Temur tuzuklaridagi eng katta raqam sifatida o'zining miqdoriy ahamiyatidan tashqari Temur davlatining qudratini, o'z kuchi va salohiyatini ifodalaydi. Bu sonning ishlatilishi davlatning kattaligini va hokimiyatning kengayishini tasvirlaydi.

Quyidagi jadvalda asarda qo'llanilgan sonlarning birlik, o'nlik, yuzlik, minglik sanoq sistemasiga ajratilgan holati tasvirlangan. Bu ajratish asarda mavjud bo'lgan iyerarxik va ijtimoiy qatlamlarni tartibga solishda, shuningdek, hukmronlikning poydevoridan tortib eng yuqori nuqtasiga qadar bo'lgan jarayonlarni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birlik	O'nlik	Yuzlik	Minglik
<i>1 — 1 ulush, 1 o'q,</i> <i>1 xatar, 1 ziyon,</i> <i>1 ot, 1 tuya, 1 uy,</i> <i>1 manzil, 1 guruh,</i> <i>1 tug', 1 bayroq,</i> <i>1 nog'ora, 1 hafta,</i>	<i>10 kishi;</i> <i>12 — 12 tabaqa</i> <i>kishi, 12 tuzuk,</i> <i>12 ta sipohiy;</i> <i>15 otliq;</i> <i>50 kishi;</i>	<i>100 otliq</i> <i>askar;</i> <i>120 fil;</i> <i>200 kishi,</i> <i>200 otliq;</i> <i>243 kishi;</i>	<i>1000 — 1000 otliq</i> <i>askar, 1000 dona</i> <i>non, 1000 tovoq</i> <i>osh;</i> <i>3000 odam;</i>



<p>1 yillik xiroj; 2 — 2 xatar, 2 kun, 2 oy, 2 kengash, 2 foyda, 2 shahar; 3 — 3 piyoda, 3 bor, 3 vazir; 4 — 4 xalifa, 4 farsang yer, 4 favj, 4 tomon, 4 vazir, 4 guvoh, 4 kishi, 4 narsa; 7 — 7 favj, 7 vazir, 7 kishi, 7 qal'a, 7 qo'shin, 7 otliq; 9 — 9 ulush, 9 favj.</p>	<p>60 otliq askar; 62 kun tutqunlik; 70 otliq.</p>	<p>300 kishi; 313 otliq.</p>	<p>5000 otliq; 6000 otliq; 7000 otliq askar; 8000 otliq; 12 ming otliq askar; 30 ming lashkar; 50 ming otliq; 92 ming otliq; 100 ming otliq askar.</p>
--	--	----------------------------------	---

Uch raqami ko'plab madaniyatlar va diniy an'analarda chuqur ramziy ma'noga ega bo'lib, ko'pqatlamlilik, uyg'onish, yangilanish va ma'naviy yuksalish kabi tushunchalarni ifodalaydi [Schimmel A., 1993]. Islom dinida ham *uch* raqami o'ziga xos ramziy ahamiyatga ega, chunki u tavhid, sahobalar va namoz kabi ta'limotlar bilan bog'liq. Temur tuzuklaridagi *uch* raqami, shuningdek, davlat boshqaruvi, ijtimoiy tuzilmalar va hokimiyatning iyerarxik darajalarini aks ettirishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, lashkarning *uch favjga* (harbiy bo'linma) bo'linishi, har bir o'lkaga *uch vazir* tayinlanishi. Xalqimizda “*uch, uchdan keyin puch*”, “*uchdan keyin kech*” maqollari biror narsaga uch marta urinib ko'rgandan keyin uning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, uchta urinishdan so'ng maqsadga erisha olmaslikni ifodalaydi. Asarda ham *uch* raqamining shu ma'noda kelishini kuzatish mumkin: “*Shundan keyin yana uch bor Qur'oni majidni qo'liga olib, do'stlik bobida ont ichdi*” .[Ахмедов Б., 1991]. Ushbu gapdan Amir Temur Amir Husaynga uch marta imkoniyat berganini, undan so'ng esa jazoga loyiq deb topgani oydinlashadi.

To'rt raqami to'rt tomonlama shakllarning (masalan, to'rtburchak, kvadrat) asosiy qismidir va shu bilan mukammallik, barqarorlikni va balansni anglatadi. To'rt tomon bir-biriga teng va bir-birini to'ldiradi, bu esa tizimdagi to'liq va muvozanatli holatni anglatadi. *To'rt* raqami, umuman olganda, dunyo va tabiatdagi barqarorlik, muvozanat va tizimni ifodalaydi. U turli sohalarda to'liq va mukammal tuzilma, tartib va o'zgaruvchanlikni bildiradi. Asarda *to'rt xalifa, to'rt tomon, to'rt vazir, to'rt favj* kabi birikmalar qo'llanilgan bo'lib, ular aynan muvozanat hamda mukammallikni ifodalagan. Bundan tashqari jahongirlik qilishda to'rt narsani xotirasida saqlagani, urush maydonini



tanlashda to‘rt narsani e‘tiborga olgani va bironing gunohi faqat to‘rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlangani, har kuni devonxonada to‘rt vazirning hozir bo‘lishi ham tartib va tizimlilikni anglatadi.

Yetti iqlim — tarixiy-geografik tushuncha, Yerni yunon va O‘rta asr Sharq fanida mintaqalarga bo‘lish usuli. Sharq geografiyasida yunon fanidagi “yetti iqlim” tushunchasi qabul qilingan. Chunonchi, yunonlar yetti iqlimga yerning ular tushunchasidagi aholi yashaydigan obod qismini kiritganlar. Sharq geografiyasida mazkur tushuncha arabcha “ma‘mura” (obod joylar) yoki “rub‘i maskun” (yerning odamlar yashaydigan choragi) degan so‘zlar bilan ifoda etiladi.[Axmedov B.,1991] “Temur tuzuklari” da ham shu bilan bog‘liq *to‘rt iqlim, beshinchi va oltinchi iqlim viloyatlari — Xorazm, Movarounnahr, Farg‘ona, Dashti Qipchoq yerlari* birikmalari qo‘llanilgan.

O‘n ikki soniga turli madaniyat va e‘tiqodlarda to‘liq, mukammal va ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan son sifatida qaraladi, ko‘pincha hayot va koinotning aylanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mukammal va to‘liq son sifatida o‘n ikki oy, o‘n ikki zodiak belgisida ko‘rinadi. Shuningdek, bu son diniy ahamiyatga ham ega, masalan, *nasroniylikdagi Isoning o‘n ikki havoriylari va yahudiy dinidagi Isroilning o‘n ikki qabilasi*. Asarda o‘n ikki tabaqa kishi, o‘n ikki tuzuk, o‘n ikki sipohiy birikmalari orqali ushbu sonning kosmik tartib, uyg‘unlik hamda yaxlitlik ramziy ma‘nolari oydinlashgan.

O‘nboshi, yuzboshi va mingboshi so‘zlari Amir Temur davrida va uning asarida ijtimoiy va harbiy tuzilmani ifodalash uchun ishlatilgan atamalar bo‘lib, ular harbiy va boshqaruv tizimida muhim o‘rin tutgan. Bu so‘zlar biror harbiy birlikning rahbarlari yoki boshliqlari sifatida ishlatilgan, ularga o‘z darajalariga qarab maosh tayinlangan.

O‘nboshi — o‘n kishilik harbiy yoki boshqaruv birlikning boshlig‘i. Bu harbiy tuzilma, qo‘shinlarda kichik birliklarning boshliqlarini ifodalagan. O‘nboshi o‘ziga birlashtirilgan o‘n jangchi yoki askarni boshqargan, ularning intizomi va harbiy harakatlarini tashkil etgan.

Yuzboshi — yuz kishilik harbiy yoki boshqaruv birlikning boshlig‘i. Yuzboshi o‘nboshi va mingboshi o‘rtasida bo‘lgan daraja sifatida qo‘shin tarkibidagi o‘rta darajali boshliqlardan biri hisoblangan.

Mingboshi — ming kishilik harbiy yoki boshqaruv birlikning boshlig‘i. Mingboshi, asosan, qo‘shinning barcha qismlarining muvaffaqiyatli faoliyatini ta‘minlash uchun strategik boshqaruvni amalga oshirgan.

Ushbu so‘zlar etimologik jihatdan o‘nning boshi, yuzning boshi, mingning boshi tarzida qo‘llanilib, keyin o‘zgarishga uchrab, so‘z birikmasidan qo‘shma so‘z holatiga kelgan.

“Temur tuzuklari”da sonlar nafaqat miqdoriy ifodalar sifatida, balki chuqur ramziy va ideologik ma‘nolarga ega bo‘lgan vositalar sifatida ishlatilgan. Asardagi sonlar tizimi o‘rganilganda ularning faqat matematik ahamiyati emas, balki ramziy va ma‘naviy ma‘nolari ham keng miqyosda ko‘rsatilgan. Har bir

son, ayniqsa, *bir, uch, to‘rt, o‘n ikki* kabi raqam va sonlar muayyan diniy, falsafiy yoki ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiradi va Amir Temurning boshqaruv tuzilmasidagi nazariy va amaliy prinsiplarni mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi.

“Temur tuzuklari”da *bir* raqami Allohning yagonaligini ifodalashda, *uch* raqami muqaddaslik va mukammallikni, to‘rt esa muvozanat va tizimlilikni anglatishda ishlatilgan bo‘lsa, o‘n ikki soni yaxlitlik va iyerarxiyani bildiradi [Schimmel A.,1993]. Bunday raqamlar orqali yaratilgan iyerarxiya Amir Temurning boshqaruv strukturasiidagi tartibni, qo‘shinlarining samarali faoliyatini va uning umumiy ideologik asoslarini mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Shuningdek, o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi kabi atamalar orqali harbiy tuzilmaning boshqaruv prinsiplari ifodalangan. Bu lavozimlar har bir darajadagi boshliqning o‘ziga xos vazifasini va harbiy birliklar o‘rtasidagi iyerarxiik munosabatlarni ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, “Temur tuzuklari”dagi raqamlar tizimi va uning ramziy ma’nolari asarda nafaqat ijtimoiy tartib va nazariy jihatlarni aks ettirgan, balki uning boshqaruv va siyosiy tizimining samarali ishlashiga xizmat qilgan. Bu esa sonlarning faqat harbiy tashkilot tuzilmasi bilan bog‘liq emas, balki Amir Temur imperiyasining ideologik va ma’naviy poydevorini mustahkamlashdagi o‘rnini ham ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Schimmel A. The mystery of numbers. – Germany, 1993.
2. Ахмедов Б тахрири остида. Темур тузуклари. – Тошкент: Гафур Гулом, 1991.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamlar-olam-tili-ni-ifodalovchi-obyekt>
4. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/download/1753/1620/1702>
5. <https://www.dictionary.com/e/religion/666/>
6. <https://symbolopedia.com/uz/symbolism-meaning-of-twelve-12/>
7. https://uzpedia.uz/pedia/yetti_iqlim
8. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality
9. Komilova, G. R. (2022). Ўзбек мақолларидаги аксиологик моделлар таҳлили. PDF maqola. Tashkent, Uzbekistan.
10. I Orazova [Frazemalar Kognitiv Semantikaning O ‘Rganish Obyekti Sifatida](#)
11. Shamsiyeva, Manzura. “Formation Of Forms Of Communication” . *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics* (2019): 87.
12. Z Xolmonova [Babürnâmedeki Bazikelimelerin Tarih? Ve Etimolojik Tahlili](#). - Journal of Social Sciences/Sosyal Bilimler Dergisi ..., 2015